


"Akademiada-2019" sport musobaqalari g'oliblari taqdirlandi

Har yilgi an'anaga ko'ra, bu yil ham O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Fanlar akademiyasi Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan 2019-yil 20-aprel kuni O'zR FA Toshkent Botanika bog'ida "Akademiada-2019" sport musobaqalari o'tkazildi.



Unga ko'ra sportning stol tennisi, shaxmat (ayollar va erkaklar o'rtasida) va yoshga oid Akademkross (18-34 yosh, 35-49 yosh va 50 yoshdan yuqori) musobaqalari tashkil etildi.

Sportning stol tennisi turida erkaklar o'rtasida 1-o'rinni Yadro fizikasi institutidan Eldor Karimboyev, 2-o'rinni Materialshunoslik institutidan Akmal Qo'chqorov, 3-o'rinni Astronomiya institutidan Quدراتilla Yo'ldoshev, ayollar o'rtasida 1-o'rinni Materialshunoslik institutidan Dildora Ermatova, 2-o'rinni Yadro fizikasi institutidan Iroda Yuldasheva, 3-o'rinni Seysmologiya institutidan Mashkura Sagatovalar egalladi.

Shaxmat bo'yicha erkaklar o'rtasida 1-o'rin Astronomiya institutidan Chori Sherdonovga, 2-o'rin O'simlik moddalari kimyosi institutidan Hamid Xodjaniyozovga, 3-o'rin Arxeologik tadqiqotlar institutidan Baxtiyor Sayfullayevga, ayollar o'rtasida 1-o'rin Umumiy va noorganik kimyo institutidan Karomat Nazarqulovaga, 2-o'rin O'simlik moddalari kimyosi institutidan Visola To'xtaliyevaga, 3-o'rin Genomika va bioinformatika markazidan Nodira Raxmatovaga nasib etdi.

Akademkross 18-35 yoshli erkaklar o'rtasida 1-o'rinni Zoologiya institutidan Asqar Quvatov, 2-o'rinni O'simlik moddalari kimyosi institutidan Shohrux Ibatov, 3-o'rinni Arxeologik tadqiqotlar institutidan Komiljon Hakimov, ayollar o'rtasida 1-o'rinni Materialshunoslik institutidan Muxlisa Yo'ldoshboyeva, 2-

o'rinni Umumiy va noorganik kimyo institutidan Mashhura Yo'lbarsova, 3-o'rinni Botanika institutidan Dilafuz Jamalovalar qo'lga kiritdi. Shuningdek, 35-49 yoshli erkaklar o'rtasida 1-o'rin O'simlik moddalari institutidan Botir Abdurazimov, 2-3-o'rinlar Materialshunoslik institutidan Shermatov Javohir hamda Abdug'ani Meliboyevlar, ayollar o'rtasida 1-o'rin Xalqaro Quyosh energiyasi institutidan Jamila Kamolova, 2-o'rin Materialshunoslik institutidan Malika Rajapova, 3-o'rin Polimerlar kimyosi institutidan Dilorom Asraqulova, 50 yoshdan yuqori bo'lgan erkaklar o'rtasida 1-o'rin Fizika-texnika institutidan Faxriddin Qosimov, 2-o'rin Materialshunoslik institutidan Komil Xolov, 3-o'rin Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutidan Saydig'ani Nabiyeu, ayollar o'rtasida 1-o'rin O'simlik moddalari kimyosi institutidan Klara Jauinbayeva, 2-o'rin FA Navoiy bo'limidan Halima Suyarova, 3-o'rin O'simlik moddalari kimyosi institutidan Rimma Pirmamedovaga nasib etdi.





G'oliblar Fanlar akademiyasi ma'muriyati va O'zR FA Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan diplom va qimmatbaho sovg'alar, pul mukofotlari bilan taqdirlandi.



